
Vol. 2, No. 1 (2026)
ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN
ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



Vol. 2, No. 1 (2026)

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

TURLI YOSH DAVRLARIDAGI SHAXSLARDA O‘ZINI O‘ZI FAOLLASHTIRISH VA EMOTSIONAL SOHA O‘RTASIDAGI ALOQADORLIKLAR

Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti,
“Amaliy psixologiya” kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari doktori (DSc)
e-mail: azimbek_qurbonboyev@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada turli yosh davrlaridagi shaxslarda emotsional sohaning o‘zini o‘zi faollashtirish jarayonidagi o‘rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy psixolog olimlarning emotsional rivojlanish va o‘zini o‘zi faollashtirishga oid ilmiy qarashlari yoritilib, inson hayoti va faoliyati davomida mazkur jarayonning namoyon bo‘lish xususiyatlari ochib berilgan. Maqolada turli yoshdagi shaxslarda emotsional sohaning rivojlanish darajasi hamda uning o‘zini o‘zi faollashtirish tizimiga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan empirik tadqiqot natijalarining miqdoriy va sifat tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: shaxsning o‘zini o‘zi faollashtirishi, shaxs faolligi, emotsional soha, ijobiy hissiyotlar, salbiy kechinmalar, agressivlik, quvnoqlik, optimistik kayfiyat, pessimizm, emotsional rivojlanish, psixologik faollik.

Аннотация. В данной статье проведён научно-теоретический анализ роли и значения эмоциональной сферы в процессе самоактуализации личности на различных возрастных этапах. Рассмотрены психологические взгляды зарубежных учёных на проблемы эмоционального развития и самоактуализации личности, а также раскрыты особенности проявления данного процесса в течение жизни и деятельности человека. В статье представлены результаты количественного и качественного анализа эмпирического исследования, посвящённого изучению влияния уровня развития эмоциональной сферы на систему самоактуализации личности у представителей различных возрастных групп.

Ключевые слова: самоактуализация личности, личностная активность, эмоциональная сфера, положительные эмоции, отрицательные переживания, агрессивность, жизнерадостность, оптимистический настрой, пессимизм, эмоциональное развитие, психологическая активность.

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the role and significance of the emotional sphere in the process of self-actualization among individuals at different stages of development. The psychological views of foreign scholars on emotional development and self-actualization are examined, and the characteristics of this process throughout human life and activity are highlighted. The article also presents a quantitative and qualitative analysis of empirical research aimed at investigating the influence of the level of emotional development on the self-actualization system among individuals of different age groups.

Keywords: self-actualization, personal activity, emotional sphere, positive emotions, negative experiences, aggressiveness, cheerfulness, optimistic attitude, pessimism, emotional development, psychological activity.

KIRISH

Tadqiqot ishimizning asosiy vazifalaridan birini amalga oshirish maqsadida ilk o‘spirinlik, o‘spirinlik va yetuklik davridagi shaxslarda o‘zini o‘zi faollashtirishning namoyon bo‘lishi aynan ulardagi emotsional soha ifodalanishiga bog‘liqligini tekshirishga harakat qilindi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Sinaluvchilar guruhlarida N.F.Kalinaning «Shaxsning o‘zini o‘zi faollashtirish darajasini diagnostika qilish» hamda E.N.Osinning «Ijobiy va salbiy hissiyotlar shkalasi» metodikalari o‘tkazildi. Ushbu so‘rovnomalar yordamida sinaluvchilar guruhida xursandchilik, zavqlanish, mamnunlik, ko‘tarinkilik kabi ijobiy hissiyotlar yoki g‘amginlik, xafalik, tushkunlik, ishonchsizlik singari salbiy emotsional holatlar yuzaga kelish darajasining o‘zini o‘zi faollashtirish namoyon bo‘lishiga ta’sirini aniqlash mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Respondentlardan mazkur metodikalar orqali olingan umumiy ma’lumotlar yosh davrlari kesimida miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi, uning natijalari 1-jadvalda aks ettirildi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra (1-jadvalga qarang), dastlab ilk o‘spirinlik davridagi sinaluvchilarning ko‘rsatkichlariga e’tibor beradigan bo‘lsak, ushbu yosh pallasidagi shaxslarda ijobiy hissiyotlar o‘zini o‘zi faollashtirishning qadriyatlar ($r=0,236$; $p\leq0,01$), ijodkorlikka intilish ($r=0,193$; $p\leq0,05$), aloqa o‘rnatish ($r=0,232$; $p\leq0,01$) komponentlari bilan musbat aloqadorlikka ega ekanligi aniqlandi. Bundan shuni anglash mumkinki, hayot va faoliyat davomida ijobiy hissiyotlarga ko‘proq berilib yuradigan ilk o‘spirinlik davrlaridagi shaxslarda o‘zini o‘zi faollashtirish sifatlari yanada tarkib topib boradi. Jumladan, o‘zgalar yaxshilish va samimiy

munosabat o‘rnatishga bo‘lgan qadriyatlar, o‘zining mavjud salohiyatini yuzaga chiqarish, boshqalar xayoliga kelmagan g‘oyalarni ilgari surish, atrofdagilar bilan munosabat o‘rnatishga qiynalmaslik, rigidlikning aksi sifatida egiluvchanlikni namoyon qilish kabi holatlar optimistik kayfiyat natijasida ko‘proq kuzatiladi. Shuningdek, ish va hayot faoliyatida yuzaga keladigan ko‘ngilsiz vaziyatlarda tushkunlikka tushib qolmaslik, ularni turli usullar yordamida bartaraf etishga harakat qilish holatlari ilk o‘spirinlarda o‘zini o‘zi faollashtirishning rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

1-jadval

Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o‘zini o‘zi faollashtirish va emotsional soha orasidagi aloqadorlik (N=462)

(Spirmen korrelyatsiyasi mezoni bo‘yicha)

O‘zini o‘zi faollashtirish komponentlari	Emotsional soha turlari					
	Ijobiy hissiyotlar			Salbiy hissiyotlar		
	Ilk o‘ spirinlik	O‘ spirinlik	Yetuklik	Ilk o‘ spirinlik	O‘ spirinlik	Yetuklik
Vaqtni mo‘ljalga olish	0,109	0,075	0,228**	-0,164*	-0,121	-0,110
Qadriyatlar	0,236**	0,179*	0,391**	-0,065	-0,260**	-0,307**
Inson tabiatiga nazar	0,021	-0,115	0,075	0,055	0,050	0,039
Bilish ehtiyojlari	0,131	0,274**	0,157	-0,031	-0,209*	-0,022
Ijodkorlikka intilish	0,193*	0,155	0,099	-0,210**	-0,207*	-0,105
Avtonomlik	0,070	0,043	0,079	0,096	-0,021	-0,219**
Spontanlik	-0,012	-0,008	0,257**	0,088	0,070	-0,268**
O‘zini o‘zi anglash	-0,022	-0,067	0,215**	-0,130	-0,084	-0,151
Autosimpatiya	0,010	0,203*	0,256**	-0,063	-0,203*	-0,227**
Aloqa o‘rnatish	0,232**	0,003	0,276**	-0,094	-0,088	-0,199*
Muloqotdagi egiluvchanlik	0,103	-0,058	-0,039	-0,017	-0,016	-0,085

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

Bundan tashqari, ilk o‘spirinlik davridagi shaxslarda salbiy hissiyotlar o‘zini o‘zi faollashtirish komponentlaridan vaqtni mo‘ljalga olish ($r=-0,164$; $p \leq 0,05$),

ijodkorlikka intilish (r=-0,210; p≤0,01) bilan o‘zaro manfiy korrelyatsion bog‘liqlikni tashkil etishi ma’lum bo‘ldi. Natijalardan shuni ta’kidlash joizki, ilk o‘spirinlik yoshidagi shaxslarda o‘qish va turmush jarayonida yuzaga kelgan kutilmagan yoqimsiz vaziyatlarga nisbatan qat’iyat bilan yondasha olmaslik, umidsiz kayfiyatga berilib qolish kabi salbiy emotsional holatlar yuqori darajada bo‘lishi ularda ayni paytdagi vaqtni yaxshi idrok qilish, o‘tmish va kelajakka lahzalari o‘rtasidagi muvozanatni saqlay olish, shuningdek, o‘z ijodiy ko‘nikmalarini ro‘yobga chiqarish, yangilikka intilish singari o‘zini o‘zi faollashtirish xususiyatlarining paydo bo‘lishiga to‘siq bo‘ladi. Demak, ilk o‘spirinlarda kelajak bilan bog‘liq bo‘lgan xavotirlanish va o‘ziga nisbatan ishonchsizlik hislari ulardagi kreativlik sifatlarining yuzaga kelishini pasaytiradi.

O‘spirinlik davridagi shaxslarda namoyon bo‘ladigan ushbu ikki hodisa o‘rtasidagi aloqadorliklarga ahamiyat beradigan bo‘lsak, ijobiy hissiyotlar o‘zini o‘zi faollashtirishning qadriyatlar (r=0,179; p≤0,05), bilish ehtiyojlari (r=0,274; p≤0,01), autosimpatiya (r=0,203; p≤0,05) komponentlari bilan ahamiyatli musbat korrelyatsion aloqadorlikka ega ekanligi kuzatildi. Mazkur ko‘rsatkichlar shuni anglatadiki, o‘spirin yoshidagi tadqiqot ishtirokchilarida xursandchilik va baxtiyorlik hislarining ortib borishi o‘z qadriyatlarini chuqur anglay olish, belgilangan hayotiy qarashlariga sodiq qolish, noma’lum narsalarni o‘rganishdan zavq olish, ekzistensial sir-sinoatlarni bilishga intilish, shuningdek, subyektiv imkoniyatlaridan qoniqish, o‘ziga yuqori baho berish xususiyatlarining ham rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Bundan anglash mumkinki, o‘spirinlik davridagi shaxslarda o‘zini o‘zi faollashtirishning yaxshi rivojlanishi stenik hissiyotlarning tez-tez ifodalanishiga zamin hozirlaydi. Misol tariqasida, ijobiy hissiyotlar va autosimpatiya xususiyati o‘rtasidagi bog‘liqlikka to‘xtaladigan bo‘lsak, o‘spirin hayotida baxtli damlarning ko‘pligi, o‘zi kutgan natijalardan qoniqish holatlarining doimiy ravishda kuzatilishi sababli o‘ziga nisbatan simpatik munosabatlar paydo bo‘la boshlaydi.

O‘spirinlarda salbiy hissiyotlarning ifodalanishi o‘zini o‘zi faollashtirish xususiyatlaridan qadriyatlar (r=-0,260; p≤0,01), bilish ehtiyojlari (r=-0,209; p≤0,05), ijodkorlikka intilish (r=-0,207; p≤0,05), autosimpatiya (r=-0,203; p≤0,05) komponentlari bilan o‘zaro manfiy korrelyatsion aloqadorlikni tashkil etgan. Bundan ko‘rinadiki, o‘spirinlik davrida shaxslarda hayoti va faoliyatida yuzaga keladigan turli ko‘ngilsiz voqealarda astenik hissiyotlarni ifodalash, salbiy emotsiyalarga berilib qolish holatlari ularda o‘zgalar bilan hamohanglik va

murosalilik qadriyatlari, o‘zini qiziqtirgan masalalarga e’tiborni qaratish, tafakkur dunyosini boyitish, ijodiy imkoniyatlarini safarbar qilish, atrofdagilardan o‘zgacha yondashuvlarni taqdim etish, o‘zining barcha tomonlaridan ko‘ngil to‘lishi va shaxsiga nisbatan hurmat bilan qarash kabi jihatlar namoyon bo‘lishiga xalaqit beradi. Modomiki, o‘spirinlar hayotiy jarayonlar davomida yuzaga keladigan to‘siqli holatlarda salbiy emotsiyalarni qanchalik idora qila olsa, o‘zini o‘zi faollashtirish sifatlarining paydo bo‘lishiga shunchalik zamin hozirlanadi.

Yetuklik davridagi shaxslar natijalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ushbu yosh davridagi insonlarda ijobiy hissiyotlar vaqtni mo‘ljalga olish ($r=0,228$; $p\leq0,01$), qadriyatlar ($r=0,391$; $p\leq0,01$), spontanlik ($r=0,257$; $p\leq0,01$) kabi o‘zini o‘zi faollashtirish komponentlari bilan musbat bog‘liqlikka ega ekanligi qayd etildi. Mazkur ko‘rsatkichlar shuni anglatadiki, umr yo‘llarida ro‘y beradigan ma’lum noxush voqeliklarni yengil qabul qilish, stress, frustratsiya va depressiya holatlariga barqaror munosabatda bo‘lish darajasi yuqori bo‘lgan o‘rta yoshli shaxslarda hayotning asosiy onlariga ahamiyat qaratish, o‘tmish yoki kelajakka bog‘lanib qolmaslik, atrofdagi insonlarga mehr-muruvvat ko‘rsatish va yaxshilik ulashish qadriyatlari, boshqalardan ajralib turuvchi fikrlarni to‘satdan o‘rtaga tashlash, keskin munosabatlarga moyillik xususiyatlari ham shunchalik ko‘p rivojlangan bo‘ladi.

Bundan tashqari, yetuklik bosqichi davridagi shaxslarda ijobiy hissiyotlar o‘zini o‘zi anglash ($r=0,215$; $p\leq0,01$), autosimpatiya ($r=0,256$; $p\leq0,01$), aloqa o‘rnatish ($r=0,276$; $p\leq0,01$) komponentlari bilan ahamiyatli ijobiy korrelyatsion bog‘liqlikka ega ekanligi aniqlandi. Buni shunday izohlash mumkinki, shaxs ontogenetik rivojlanishining o‘rta davrlariga kelib, o‘zining imkoniyatlariga yetarlicha baho berish, zaif tomonlarini tan ola bilish, o‘z “Men”iga simpatik munosabatda bo‘lish, shaxiy sifatlaridan yuqori darajada qoniqish, shu bilan birga, turli ijtimoiy guruhlarda faol bo‘lish, insonlar bilan muloqot o‘rnatishga qiynalmaslik holatlarining ko‘proq rivojlanishiga ijobiy his-tuyg‘ularni qo‘llab-quvvatlash, salbiy hissiyotlarni tartibga solish, hayotdan qoniqish va zavq olish kabi emotsional soha sifatlari o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Yetuklik davridagi sinaluvchilarda salbiy hissiyotlar o‘zini o‘zi faollashtirish xususiyatlaridan qadriyatlar ($r=-0,307$; $p\leq0,01$), avtonomlik ($r=-0,219$; $p\leq0,01$), spontanlik ($r=-0,268$; $p\leq0,01$), autosimpatiya ($r=-0,227$; $p\leq0,01$), aloqa o‘rnatish ($r=-0,199$; $p\leq0,05$) komponentlari bilan o‘zaro manfiy bog‘liqlikni tashkil etganligi aniqlandi. Mazkur ko‘rsatkichlarga tayanib, ta’kidlash joizki, yetuklik bosqichidagi

insonlarda tushkunlikka tushish, hayotda yashashdan mazmun topa olmaslik, jo‘shqin hissiyotlarning yetishmasligi kabi emotsional holatlarning kuchli darajada namoyon bo‘lishi natijasida o‘z qadriyatlarini anglay olmaslik, muhim ehtiyojlarning qondirilmasligi, mustaqil fikr yuritishdagi qiyinchiliklar, boshqalar yordamiga muhtojlik, rigidlikning tez-tez ifodalanishi, yangi qarorlarni qabul qila olmaslik, o‘ziga nisbatan past baho berish va shaxsiy imkoniyatlaridan qoniqmaslik, o‘zgalar oldida o‘zining qarashlarini erkin bayon qilishga nisbatan xavotirlanish, jamiyatdan uzilib qolishga moyillik singari psixologik omillar ortib boradi.

Yuqorida keltirilgan natijalar asosida ta’kidlash joizki, o‘zini o‘zi faollashtirish komponentlari va emotsional soha o‘rtasidagi aloqadorliklar yosh davrlari kesimida o‘rganilganda, ushbu fenomenlar o‘rtasida ahamiyatli ijobiy va salbiy bog‘lanishlar kuzatildi. Mazkur ikkita omil orasidagi bog‘liqlik darajalari umumiy holatda ham tahlil qilinib, uning natijalari 2-jadvalda aks ettirilgan.

2-jadval

Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o‘zini o‘zi faollashtirish va emotsional soha orasidagi aloqadorlikning umumiy holatda namoyon bo‘lishi (N=462)

(Spirmen korrelyatsiyasi mezoni bo‘yicha)

O‘zini o‘zi faollashtirish komponentlari	Emotsional soha turlari	
	Ijobiy hissiyotlar	Salbiy hissiyotlar
Vaqtni mo‘ljalga olish	0,192**	-0,155**
Qadriyatlar	0,304**	-0,224**
Inson tabiatiga nazar	0,024	0,037
Bilish ehtiyojlari	0,211**	-0,096*
Ijodkorlikka intilish	0,174**	-0,178**
Avtonomlik	0,060	-0,047
Spontanlik	0,067	-0,025
O‘zini o‘zi anglash	0,042	-0,121**
Autosimpatiya	0,134**	-0,168**
Aloqa o‘rnatish	0,162**	-0,123**
Muloqotdagi egiluvchanlik	0,016	-0,044

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

2-jadvalda keltirilgan natijalarga ko‘ra, turli yosh davrlaridagi shaxslarda ijobiy hissiyotlar va o‘zini o‘zi faollashtirishning vaqtni mo‘ljalga olish (r=0,192;

p≤0,01), qadriyatlar (r=0,304; p≤0,01), bilish ehtiyojlari (r=0,211; p≤0,01) komponentlari o‘rtasida ijobiy korrelyatsion aloqadorlik mavjudligi qayd etildi. Bundan ko‘rinadiki, shaxsda umr yo‘llarida paydo bo‘ladigan ko‘ngilsiz vaziyatlarda o‘z hissiyotlarini boshqara olish, salbiy emotsiyalarga berilib qolmaslik, hayotga muhabbat bilan qarash darajalari qanchalik yuqoriligi kuzatilsa, “shu yerda va hozir” tamoyili asosida yashash, asosiy e’tiborni hozirgi kunga qaratish, o‘zgalarga yaxshilik ulashish va jamiyat a’zolariga ezgulik qilish qadriyatlarini ustun qo‘yish, o‘z bilim va dunyoqarashini rivojlantirishni istash, yangilikka intilish kabi xususiyatlar shunchalik ko‘p rivojlangan bo‘ladi.

Shu bilan birga, ushbu davrdagi sinaluvchilarda ijobiy hissiyotlar va o‘zini o‘zi faollashtirish xususiyatlaridan ijodkorlikka intilish (r=0,174; p≤0,01), autosimpatiya (r=0,134; p≤0,01), aloqa o‘rnatish (r=0,162; p≤0,01) bilan o‘zaro musbat aloqadorlikka egaligi kuzatildi. Natijalardan ma’lumki, ijobiy emotsional holatlarni boshdan kechirish darajasi yuqori bo‘lgan turli yosh davrlaridagi shaxslarda o‘z ijodiy salohiyatini namoyon qilishga bo‘lgan kuchli intilish, yashirin qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish xususiyatlari ko‘proq rivojlangan bo‘ladi. Shuningdek, hayot va faoliyat davomida yuzaga keladigan murakkab vaziyatlarda tushkunlikka tushmaslik, stenik hissiyotlarni ifodalash holatlari yuqori darajada namoyon bo‘lishiga ulardagi o‘ziga simpatik munosabat bildirish, subyektiv sifatlardan qoniqish, shaxslaro munosabatlarning yaxshiligi, muloqotga kirishishdagi egiluvchanlik kabi omillar sezilarli ta’sir o‘tkazadi.

Turli yosh davrlaridagi shaxslarda salbiy hissiyotlar va o‘zini o‘zi faollashtirish xususiyatlari o‘rtasidagi aloqadorlik o‘rganilganda, vaqtni mo‘ljalga olish (r=-0,155; p≤0,01), qadriyatlar (r=-0,224; p≤0,01), bilish ehtiyojlari (r=-0,178; p≤0,01) ahamiyatli manfiy bog‘liqlik aniqlandi. Mazkur ko‘rsatkichlar shuni anglatadiki, turli yoshga ega bo‘lgan insonlarda hozirgi paytda zarur bo‘lgan ehtiyojlarga e’tibor qaratish, o‘tmish xotiralariga bog‘lanib qolmaslik, o‘zgalarga samimiy munosabatda bo‘lish va hamohanglik ko‘rsatish qadriyatlari, yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirishga intilish, o‘z bilimlarini boyitishga harakat qilish holatlarining namoyon bo‘lishida hayotda ro‘y beradigan ko‘ngilsiz vaziyatlarni haddan tashqari fojiali idrok qilish, umidsizlikka tushib qolish, o‘ziga nisbatan ishonchning yetishmasligi kabi omillar to‘sqinlik qiladi.

Bundan tashqari, mazkur davrda salbiy hissiyotlar va ijodkorlikka intilish (r=-0,178; p≤0,01), o‘zini o‘zi anglash (r=-0,121; p≤0,01), autosimpatiya (r=-0,168; p≤0,01), aloqa o‘rnatish (r=-0,123; p≤0,01) kabi o‘zini o‘zi faollashtirish

xususiyatlari o‘rtasida o‘zaro manfiy korrelyatsion aloqadorliklar qayd etildi. Bundan anglash mumkinki, turli yosh davrlaridagi shaxslarida o‘ziga nisbatan ihsonchsizlik, kutilmagan vaziyatlarda depressiv kayfiyatga moyillik yoki xavotirlanish holatlari yuqori darajada namoyon bo‘lishi natijasida ularda ijodiy qobiliyatlarning so‘nishi, faoliyat jarayonida original natijalarga erisha olmaslik, o‘zining kuchli tomonlarini idrok qilolmaslik, imkoniyatlariga past baho berish, o‘ziga nisbatan adovat hissini tuyish, ichki dunyosidan qoniqmaslik, shu bilan birga, boshqalarga o‘z fikrini erkin bildirishdagi qiyinchiliklar, shaxslararo munosabatlardagi rigidlik kabi sifatlar sezilarli tarzda yuzaga keladi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida xulosa qilish mumkinki, turli yosh davrlaridagi shaxslarda emotsional sohaning o‘zini o‘zi faollashtirish namoyon bo‘lishiga ta’sir jarayoni o‘rganib chiqilganda, shu narsa ma’lum bo‘ldiki, har ikkala hodisa ko‘plab nuqtalarda ijobiy va salbiy bog‘liqliklarni hosil qiladi. Xususan, o‘zini o‘zi faollashtirish komponentlari ijobiy hissiyotlar bilan musbat korrelyatsion aloqadorlikni tashkil etsa, salbiy emotsional holatlar bilan esa manfiy bog‘liqlikni qayd etishi aniqlandi. Mazkur ko‘rsatkichlar turli yosh davrlaridagi shaxslarda o‘zini o‘zi faollashtirish xususiyatlari namoyon bo‘lishiga insondagi ijobiy hissiyotlarning shakllanganlik darajasi bevosita ta’sir qilishi mumkinligini tasdiqlaydi. Zero, shaxs ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara borgani sari unda o‘zidan va hayotdan qoniqish, ishonch, eyforiya kabi ijobiy hissiy holatlar kuzatila boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Барзин К.В. Чтобы ребёнок успешно учился: Педагогический всеобуч родителей. – М.: Педагогика, 1988.- 176 с.
2. Имедадзе И.В. Проблема полимотивации поведения //Вопросы психологии. –М., 1984. -№6. -С67-72.
3. Маркова А.К. Формирование мотивации учения в школьном возрасте. Пособие для учителя. – М.: Просвещение, 1983.- 96 с
4. Петровская Л.А. Теоретические и методологические проблемы социально-психологического тренинга. – М.: МГУ, 1982. - 168 с.
5. Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность. В 2-х т./ Пер. с нем./ Под ред. Б.М.Величковского; предисл. Л.И.Анцыферовой, Б.М.Величковского. – М.: Педагогика, 1986. Т.2.- 392 с.

MUNDARIJA

UYUSHMAGAN YOSHLAR VA ULARNING MUAMMOLARI Atabayeva Nargis Batirovna	**4**
TURLI YOSH DAVRLARIDAGI SHAXSLARDA O‘ZINI O‘ZI FAOLLASHTIRISH VA EMOTSIONAL SOHA O‘RTASIDAGI ALOQADORLIKLAR Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li	**25**
O‘ZBEK VA QIRG‘IZ QIZLARINI ETNIK STEREOTIPLARI VA IJTIMOIY USTANOVKALARINI ILMIY TADQIQ ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI Djuxonova Noxida Xayotjonovna	**33**
ZAMONAVIY SHIFOKORLAR PROFESSIONAL KARERASIDA PSIXOLOGIK OMILLARNING TA’SIRI Arziqulov O‘tkirbek Maxammatovich	**43**
KIMYOVIY ADDIKTATSIYALARDA OILAVIY MUHITNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI Mirashirova Nargiza Anvarovna., Raxmatova Zulxumor Alimovna	**50**
TYUTORLARNING BOSHQARUV USLUBLARI VA ULARNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI Alijonov Nurbek Ulug‘bek o‘g‘li	**56**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING JINSIY XUSUSIYATLARI Rajabov Murodil Jumaboyevich., Yuldasheva Shoxista Tojialiyevna	**70**
TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHI SHAXSI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK USULLARI Soliyev Farxodjon Sodiqovich., Akbarova Nigora Axmadjonovna	**78**

MUNDARIJA

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O‘QUVCHILARIDA KASBIY O‘ZINI-O‘ZI BELGILASH: MOTIVATSION VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Mo‘minov Davronjon Marifjon o‘g‘li	**92**
O‘ZBEK VA RUS QIZLARINI OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARINI AMALIY O‘RGANILISHI Usmonova Nargiza Raximjonovna	**102**
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ Мирзажонова Элеонора Топволдиевна	**110**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RUHIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Z.O.Abdullayeva	**117**
HARBIY FAOLIYATDA ZAMONAVIY STRESS OMILLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi	**125**
PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA MOLIYAVIY STRESS MUAMMOSINING ILMIY TADQIQ ETILGANLIK DARAJASI Sotvoldiyeva Nargiza Abdukarimjon qizi	**136**
КОРРЕЛЯЦИЯ ИНФОРМАЦИОННОГО И ТЕМПЕРАМЕНТНОГО КРИТЕРИЕВ ВЕРТНОСТЕЙ В СФЕРЕ КОГНИТИВНОЙ СОЦИОНИКИ Туллекова Карина Сергеевна	**143**
TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARNING SHAKLLANISH OMILLARI VA BARTARAF ETISH YO‘LLARI Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	**157**

MUNDARIJA

MURAKKAB BICHIMDAGI USTKI KIYIMLARNI MODELLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Sattorova Ra’no Abdunazar qizi., Sindarova Shoxista Maxammatovna	**166**
O‘ZBEKISTONDA BAG‘RIKENGLIK SIYOSATINI YURITISHDA ETNOTURIZMNING O‘RNI Shavkat Bobojonov	**173**
BUXORONING OILAVIY VA JAMOAVYI MAROSIMLARI (MAHALLIY ERONIYLAR MISOLIDA) Iroda Kalonova	**177**
ELLIPTIK GAPLARNING STILISTIK MAQOMI Rasulov Zubaydullo Izomovich	**183**
PRAGMATIC AND COGNITIVE ANALYSIS OF CONCEPT “PEACE” IN POLITICAL SPEECH Rakhmatova Mehriniso Musinovna., Rakhmonova Jasmina Anvarovna	**188**
TIL EVOLYUTSIYASIDA O‘ZGARUVCHANLIK VA TEJAMKORLIK PRINSIPLARI Qobilova Nargiza Sulaymonovna	**194**
ZAMONAVIY INTERNET-MULOQOTDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR FENOMENI Jalolova Nigina Zavqiddin qizi	**203**

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/